Omonilla Madayevning filologik qarashlari

Mamadaliyeva Mamlakat Qaxramon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya: Omonilla Madayevning milliy tilimiz va uning sofligini asrash masalalari, bu bo‘yicha ko‘rsatmalar televideniyadagi chiqishlari asosida yoritilgan. Xalqimiz maishiy hayotda ishlatayotgan ayrim so‘zlar va ularning ma’nolari xalqona tilda tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: hordiq, lutfan, bejiz, suxandon, mashg‘ulot.
Аннотация: На основе телевизионных выступлений Омониллы Мадаева рассматриваются вопросы сохранения нашего национального языка и его чистоты, а также методы его защиты. Анализируются некоторые слова, используемые нашим народом в повседневной жизни, и их значения в разговорной речи.
Ключевые слова: досуг, удовольствие, безиз, сухандон, машгулот.
Abstract: The issues of preserving our national language and its purity, as well as the instructions for this, are covered based on Omonilla Madayev's television appearances. Some words used by our people in their daily lives and their meanings in the vernacular are analyzed.
Keywords: leisure, pleasure, beziz, sukhandon, mashghulot.

Omonilla Madayev adabiyotshunos, folklorshunos, mohir pedagog, jonkuyar targ‘ibotchi edi. Shu bilan birgalikda, muallif va boshlovchi sifatida ham O‘zbekiston televideniyasida bir qator ko‘rsatuvlar tayyorladi. Olimning televideniyeda o‘ziga xos chiqishlari xalqimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutilardi. Omonilla Madayev televideniye estetikasini juda chuqur o‘zlashtirib, jamiyatning og‘riqli nuqtalarini juda teran anglagan holda ularni o‘z ma’ruzalari, fikr-mulohazalarida bayon qila olgan. “U kamera ro‘parasida namoyon bo‘lib, millionlarga murojaat etganida go‘yoki ikki yoqlama, ilmiy tilda aytganda, kommunikatsion-informativ munosabatda bo‘lar edi. U tinglovchi-tomoshabinni ko‘rib, eshitib turgandek bo‘lardi. Zero, studiya mehmonlari orasida aks-sado chiqmaydigan devorga qarab gapirayotganlarni hali ham uchratamiz. U ko‘rsatuvning boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro suhbatga ham berilmas edi. Millionlar bilan muloqotda bo‘lar edi”[3-31] . Omonilla Madayev xalqning dardi bilan yashagan va ularga chora izlash payida yurgan insonlardan edi. Darhaqiqat, olimning ma’ruzalarida oddiy insonlarning yuragidagi dardlarni, ularni qiynab kelayotgan og‘riqli nuqtalarni topib, ayni paytda yuksak jasorat bilan ifoda eta olgan. Shu bilan birga o‘z xalqining yanada ilmli va ma’rifatli bo‘lishini istagan. 1980-yillarning oxirida olim Alibek Rustamov va Hisomiddin G‘ulomovlar bilan birgalikda “Til-millat ko‘zgusi” ko‘rsatuvini olib borishgan. Bu ko‘rsatuvlar xalqimizni yanada tilimizni qadrlashga, so‘zlarni ishlatishda e’tiborli bo‘lishga, o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan boshqa tillardagi so‘zlarni almashtirmaslikka, o‘zbekcha so‘zlarni to‘g‘ri va o‘rinli ishlatishga dastak vazifasini bajargan. Shu ko‘rsatuvlarning birida “lutfan taklif etamiz” so‘z birikmasi muhokama qilingan. Muhokama davomida bu so‘z haqorat ekanligi bu birikmani taklif xatlarida ishlatmaslikni kuyunchaklik bilan tushuntiradi. Afsuski, oradan shuncha vaqt o‘tsa ham hali ham xalqimiz orasida bu so‘zning qo‘llanilishi achinarli holatdir. Kun.Uz yangiliklar saytida bo‘lib o‘tgan suhbatlarning birida esa tilimizga bo‘lgan e’tiborning sustligi, davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinganligiga ko‘p yillar bo‘lgan bo‘lsa-da, bu sohada sezilarli siljishlar kuzatilmaganini kuyunchaklik bilan ta’kidlagan. “Ona tilimiz haqorat qilingan bir zamonda uning sofligini ta’minlash maqsadida taniqli ziyolilarimiz jonini jabborga berishga tayyor turganlar. Ammo o‘zbek tili davlat maqomiga erishgan bir hurriyat zamonda uning pokligi faqat yilning 21-oktabr kuni eslanadigan bo‘lib qoldi. Achinarli jihati shundaki, bu ko‘ngilsiz holat an’anaga aylanib bormoqda”[1]. Bu holat yozuvchilar orasida ham uchrayotgani, bu esa yanada achinarli holat ekanligini kuyunib gapiardi va fikrning isboti sifatida bir necha misollar keltiradi. Masalan: tilimizda “hordiq” so‘zi mavjud bo‘lib, uning ma’nosi “charchoq” ekanligi, yozuvchi esa “hordiq chiqarish” deb emas “hordiq olish” ko‘rinishida qo‘llab, uning ma’nosini “dam”, “orom”ga aylantirib yuborganini ta’kidlagan va bunga 1970-yillarda yozilgan asardan namuna keltirgan. “Ulug‘bek hordiq olish uchun

xobxonaga kirdi". Ana shu yo‘l qo‘yilgan xatoning ildizi yanada barq urib rivojlanib, hattoki "Hordiq" nomli gazetaning borligini ham afsus bilan aytib o‘tadi. Millatimizni tildan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga dav'at qilayotgan bir paytda shu soha vakillarini bu kabi xatolarga yo‘l qo‘yishi juda ham achinarli ekanligini ta'kidlaydi, ularni yanada e'tiborli bo‘lishga undaydi. Jamiyatimizdagi bu kabi xatoliklarni oldini olish uchun esa "Biz har bir o‘zbekning qalbiga tilga nisbatan hurmat, tilga nisbatan izzat va tilning qadriyat ekanligini, ajdodlarimiz tomonidan bizga o‘tib kelayotgan madaniy meros ekanligini tushuntirmagunimizgacha ishning ilgari siljishi mumkin emas" [2], – deya ta'kidlaydi. 2018-yil 17-aprel kuni "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida Nodir Jonuzoq boshlovchiligida efirga uzatilgan "Fikrat" ko‘rsatuvida ham o‘zbek tilimizning sofligi, tilimizda ma'nosi bilmasdan ishlatilayotgan "lahmgo‘sht", "axborotlar", "hassakash", "bejizga", "tashrif buyurdi", "kulgu" kabi so‘zlarning asl mazmuni, ular qachondan noto‘g‘ri qo‘llana boshlagani haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, ko‘chalarda yozilgan e'lon va peshlavhalarda uchraydigan imloviy, punktuatsion xatolarning tobora ko‘payib borayotgani asosiy sababi esa savodsizlik ekani, buning oldini olish uchun esa aholini kitobxonlikka o‘rgatish muhim masalalardan ekanini ta'kidlaydi. O‘zbek tilimiz haqida tashkil etilgan ko‘rsatuvlardan yana biri 2018-yil, 15-oktyabr sanasida O‘zbekiston telekanalida to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyish etilgan "Munosabat" tok-shousidir. Bu ko‘rsatuv "Tilga e'tibor – elga e'tibor" mavzusida olib borilgan bo‘lib, bunda ham e'tiborsizligimiz, loqaydligimiz, bilimsizligimiz tufayli adabiy tildan foydalanishda, shevalarda so‘zlashayotgan hollarda yo‘l qo‘yilayotgan xatolar, estrada vakillari ijro etayotgan qo‘shiqlardagi nuqsonlar, ularni to‘g‘irlash chora-tadbirlari xususida fikr yuritiladi. Ana shu jarayonda ustoz xatoliklarni to‘g‘irlashning yo‘llari haqida fikr yuritib ikki asosiy vazifani keltirgan. Birinchi vazifa quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

1. Respublika bo‘yicha o‘zbek tilidan foydalanishni nazorat qiluvchi rasmiy tashkilot tuzish va bu tashkilotga xatoliklarni tuzatish bo‘yicha alohida vakolatlar berish;

2. Umumta'lim maktablarida, ayniqsa, 11-sinf o‘quvchilariga Erkin Vohidovning "So‘z latofati" kitobini dars sifatida o‘tishni joriy qilish, tilimizdagi nuqsonlarni belgilagan holatda mashg‘ulotlarda shular ustida ishlash.

Ikkinchi vazifa esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Tilshunos olimlar ishtirokida milliy tilimizda qo‘llaniladigan kamchiliklarnining ro‘yxatini tuzish va ularni oldini olish ;

2. Radio, televideniye suxandonlariga o‘zbek tili va adabiyoti fanidan majburiy mashg‘ulotlarni o‘tishni joriy qilish va faqat konkurs, ya'ni tanlov orqali suxandonlarni boshlovchilikka tanlashni joriy qilish;

3. O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining malaka oshirish institutlarida milliy tildan foydalanishdagi nuqsonlarni kamaytirish maqsadida maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish;

4. Umumta'lim maktablarida o‘quvchilarning yozma nutqiga bo‘lgan munosabatini isloh qilish, oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirish imtihonlaridan oldin imtihonda qatnashish huquqiga ega bo‘lish uchun insho yozish sinovini joriy qilish kerak.

5. Nashriyotdagi muharrirlar, korrektorlarni imlo, uslub yo‘nalishi bo‘yicha qayta o‘qitish kerak"[2] .

Omonilla Madayev butun hayoti davomida millat kelajagini yuqoriga ko‘tarish uchun harakat qildi. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishni, tilimizga bo‘lgan e'tiborni kuchaytirishni, ilm-fan taraqqiyotini rivojlantirishni o‘z hayotining maqsadi va muhim vazifasi deb bildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madayev saboqlari" telegram kanali. "Ochiq xat" maqolasidan.
2. "Munosabat" tok-shou. 2018-yil, 15-oktabr. O‘zbekiston Milliy teleradikompaniyasi. www.mtrk.uz
3. Madayeva Sh. Insonlik unvoniga sadoqat – adabiyotshunos olim Omonilla Madayev xotirasiga bitiklar. – Toshkent, 2020. – B. 31.